

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE ACT IN PRIMARY EDUCATION

Suyarov Qahramon Xusanovich,

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and  
Advanced Training of Public Educators

### Annotation

This article discusses the benefits of using ICT in primary school.

**Keywords:** ICT, efficiency, convenience, demonstration.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad- aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlariningo' yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan mana shu axborot texnologiyalari ta'limning asosiy hamda universal vositasi hisoblanadi va u nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini yaratadi, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. So'nggi pedagogik hamda psixologik tadqiqotlarda shu narsa aynan ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuriga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, ma'lum bir jarayonning obrazli tarzda ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim –talim tizimining asosiy poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta bo'lgan mas'uliyatni yuklaydi. Bugungi kunda o'quvchilarda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligi va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash uchu esa aynan mana shu AKTning joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Axborot texnologiyalaridan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Aynan boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili darsida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tili faniga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Barcha o'quv fanlari qatori ona tili fanida ham test topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Biz testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishdagsidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanish mumkin. Bunday testlarning ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilar testlarni bajarib bo'lishlari bilan darhol bahosini olishiga imkon beradi. Bahoni esa kompyuterning o'zi taqdim etadi, shuningdek, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi.

Shuningdek, ona tili o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish so'z boyligini oshirishga va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Asosiysi, ta'limning sifati va samaradorligiga erishiladi. Kompyuterdan foydalanishda ona tili darslari uchun "Videotopishmoq" o'yini o'quvchilarnidarsga qiziqishtirishning qulay usullaridandir. Bu usul orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq qobilyatini rivojlantirish, o'z nutqini to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Internet tarmog'idan foydalanib, mavzularga mos ravishda rasmlar tanlab olinadi. Kompyuter dasturiga joylanadi

rasmlar videoproyektor yordamida o'quvchilarga maxsus ekran orqali namoyish qilinadi. "Videotopshiriq" shartiga ko'ra, rasm asosida og'zaki yoki yozma matn tuzish topshiriladi. Masalan, rasmda biror tarixiy shaxs yoki ona tabiat tasviri bo'lishi mumkin. O'quvchilar bilganlarini ixcham holda bayon qiladi.

Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishga va birliklarni turlarga bo'lishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali esa o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar (ma'nodosh so'zlar), antonimlar (zid ma'noli so'zlar) va omonim (shakldosh so'zlar) ni farqlashga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan "Teskari o'yin" testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.



Testlar borasida gap ketganda, albatta, PISA testlaridan foydalanishning ahamiyati xususida ham aytish o'rinlidir. Chunki bu PISA testlari zamonaviy ta'limning yangi dasturlaridan bo'lib, o'quvchilarga birmuncha qulayliklarni beradi. Ya'ni PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun biz bu dastur orqali o'quvchilarning savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

**PISA testidan namunalar:**

**1. Maqolni davom ettiring:**

"Hunarli yigit – \_\_\_\_\_".


- A. gulli daraxt    B. bargli daraxt    D. mevali daraxt    C. quruq daraxt



**2. Kasb nomini toping:**

**Qo'li shirin pazanda, Ovqatni qilmas kanda. Olib, tatib ko'ringlar, Ta'mi juda mazza-da.**

- A. kutubxonachi    B. sozanda    D. sotuvchi    C. oshpaz





## 17. Berilganlardan qaysi birining nomi bir bo'g'indan iborat?

B.

D.

C.



Shuningdek, boshqotirmali savollar o'yini ham dars jarayonining qiziqarli va obrazli tarzda o'tishida yordam beradi. Bunday boshqotirmalarni har qanday mavzu yuzasidan tuzib, darsda qo'llash mumkin.

1. Nutq og'zaki va yana qanday shakli bor?  
2. kim?, kimlar? so'roqlariga javob bo'ladigan olmoshlar qanday olmoshlar?  
3. nutqning yozma shakli nima?  
4. gapning asosini kesim va nima tashkil qiladi?  
5. -m, -im, -ng, -ing, -i, -si — egalik qo'shimchalari qanday ma'nosini bildiradi?

Ostonova Umida  
Kogon tuman  
1-maktab

1. Kim? nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi?  
2. ser-, be-, -siz, -li, -chan, -dor, -q — nima yasovchi qo'shimchalar?  
3. Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi?  
4. -ni qo'shimchasi qaysi kelishikning qo'shimchasi?  
5. Men, sen, u, biz, siz, ular so'zlari qaday olmoshlaridir?

Ostonova Umida  
Kogon tuman  
1-maktab

Bundan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalanib dars o'tilganda, o'quvchilar dars materiallarini mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar esa ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish- zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak darslarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borsak, o'qituvchilar kam kuch sarflab ko'proq natijaga erishishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
2. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Karimova F. 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2017
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)